



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023- yil 1- may holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 37 777 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 32 770 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘sishi 99,2 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 99,2 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- may holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda 1 461 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2018- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 072 taga, oilaviy korxonalar 310 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida


G'uzor	181	8,7 %	Nishon	198	10,5 %
Dehqonobod	138	8,1 %	Kasbi	226	12,3 %
Qamashi	151	5,7 %	Ko'kdala	107	9,9 %
Qarshi	184	7,5 %	Chiroqchi	106	5,3 %
Koson	243	8,0 %	Shahrisabz	115	6,7 %
Kitob	162	6,0 %	Yakkabog'	219	8,3 %
Mirishkor	117	7,1 %	Qarshi sh.	361	5,0 %
Muborak	74	6,0 %	Shahrisabz sh.	111	5,5 %

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2023- yil 1- may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 37 777 tani tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 10 896 tadan 11 074 taga (o'sish 178 ta), tashish va saqlash – 997 tadan 1 026 taga (o'sish 29 ta), sanoatda – 4 925 tadan 4 928 taga (o'sish 3 ta).

Hududlar kesimida


G'uzor	2 092	Nishon	1 880
Dehqonobod	1 700	Kasbi	1 830
Qamashi	2 640	Ko'kdala	1 082
Qarshi	2 453	Chiroqchi	1 995
Koson	3 025	Shahrisabz	1 720
Kitob	2 678	Yakkabog'	2 641
Mirishkor	1 638	Qarshi sh.	7 154
Muborak	1 224	Shahrisabz sh.	2 025

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 640 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 634 ta;
- yirik korxonalar 6 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


G'uzor	179	9,7 %	Nishon	197	11,7 %
Dehqonobod	138	9,5 %	Kasbi	225	13,9 %
Qamashi	149	6,4 %	Ko'kdala	102	11,7 %
Qarshi	175	8,1 %	Chiroqchi	103	6,1 %
Koson	243	9,1 %	Shahrisabz	113	7,9 %
Kitob	155	6,6 %	Yakkabog'	217	9,3 %
Mirishkor	117	8,2 %	Qarshi sh.	344	5,5 %
Muborak	73	6,9 %	Shahrisabz sh.	110	6,2 %

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- may holatiga 32 989 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 178,2 foizni tashkil etdi (18 516 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 33,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 21,5 foiz, sanoat – 14,9 foiz, qurilish – 9,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,3 foiz, tashish va saqlash – 3,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,1 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, boshqa turlari – 9,1 foiz.


Hududlar kesimida

G'uzor	1 846
Dehqonobod	1 459
Qamashi	2 343
Qarshi	2 160
Koson	2 684
Kitob	2 335
Mirishkor	1 429
Muborak	1 063


Nishon	1 678
Kasbi	1 615
Ko'kdala	872
Chiroqchi	1 688
Shahrisabz	1 434
Yakkabog'	2 321
Qarshi sh.	6 274
Shahrisabz sh.	1 788

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar- aprel oylarida tashish va saqlash sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 47 tadan 113 taga (o'sish 66 taga), axborot va aloqa – 35 tadan 50 taga (o'sish 15 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


G'uzor	179	9,7 %	Nishon	197	11,8 %
Dehqonobod	138	9,5 %	Kasbi	225	14,0 %
Qamashi	149	6,4 %	Ko'kdala	102	11,7 %
Qarshi	175	8,2 %	Chiroqchi	103	6,1 %
Koson	243	9,1 %	Shahrisabz	113	7,9 %
Kitob	155	6,7 %	Yakkabog'	217	9,4 %
Mirishkor	117	8,2 %	Qarshi sh.	338	5,5 %
Muborak	73	7,0 %	Shahrisabz sh.	110	6,2 %

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (18,9 foiz), Koson (8,1 foiz), Kitob (7,1 foiz), Qamashi (7,1 foiz) va Yakkabog' (7,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 80 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

G'uzor	1 839	Nishon	1 668
Dehqonobod	1 453	Kasbi	1 607
Qamashi	2 341	Ko'kdala	872
Qarshi	2 145	Chiroqchi	1 681
Koson	2 669	Shahrisabz	1 430
Kitob	2 326	Yakkabog'	2 315
Mirishkor	1 424	Qarshi sh.	6 170
Muborak	1 049	Shahrisabz sh.	1 781

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar
2023- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda


Hududlar kesimida

G‘uzor	300
Dehqonobod	485
Qamashi	987
Qarshi	399
Koson	812
Kitob	564
Mirishkor	529
Muborak	193
Nishon	688
Kasbi	464
Ko‘kdala	257
Chiroqchi	249
Shahrisabz	366
Yakkabog‘	497
Qarshi sh.	241
Shahrisabz sh.	78



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.



Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik va
bu sohalarda xizmat
ko‘rsatish


O‘rmonchilik va
yog‘och
tayyorlash

Baliq ovlash va
akvakultura

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

G'uzor	394
Dehqonobod	122
Qamashi	302
Qarshi	306
Koson	280
Kitob	507
Mirishkor	198
Muborak	118
Nishon	172
Kasbi	221
Ko'kdala	117
Chiroqchi	262
Shahrisabz	276
Yakkabog'	418
Qarshi sh.	874
Shahrisabz sh.	361



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o'sish sur'ati 111,1 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,2 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 92,9 foiz), 5,8 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 100,4 foiz), 1,3 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 104,9 foiz) va 0,7 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 113,8 foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

G'uzor	105
Dehqonobod	107
Qamashi	137
Qarshi	310
Koson	274
Kitob	119
Mirishkor	96
Muborak	140
Nishon	97
Kasbi	140
Ko'kdala	35
Chiroqchi	151
Shahrisabz	102
Yakkabog'	184
Qarshi sh.	834
Shahrisabz sh.	139



Mamlakatimizda qurilish sohasida iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 63,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 80,7 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,3 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 22,0 foiz ulushni va 85,9 foizni tashkil etdi.

431

Fuqarolik
obyektlarini qurish

653

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari


1 886

Bino va
inshootlar qurish

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

G'uzor	660
Dehqonobod	508
Qamashi	619
Qarshi	742
Koson	946
Kitob	596
Mirishkor	452
Muborak	407
Nishon	466
Kasbi	563
Ko'kdala	309
Chiroqchi	693
Shahrisabz	385
Yakkabog'	780
Qarshi sh.	2 254
Shahrisabz sh.	694



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 11 037 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 72,5 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 102,5 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 18,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 94,9 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 110,7 foizni tashkil etdi.

954

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 088

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


8 032

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

G'uzor	100
Dehqonobod	54
Qamashi	85
Qarshi	88
Koson	54
Kitob	210
Mirishkor	19
Muborak	32
Nishon	38
Kasbi	38
Ko'kdala	42
Chiroqchi	101
Shahrisabz	138
Yakkabog'	148
Qarshi sh.	474
Shahrisabz sh.	149



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 170,0 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 10,4 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 89,6 foiz ulushini tashkil etdi.

184

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 586


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

G'uzor	31
Dehqonobod	4
Qamashi	13
Qarshi	29
Koson	22
Kitob	31
Mirishkor	8
Muborak	6
Nishon	8
Kasbi	17
Ko'kdala	13
Chiroqchi	54
Shahrisabz	6
Yakkabog'	19
Qarshi sh.	165
Shahrisabz sh.	36



2023- yil 1- may holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 40,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 93,1 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 2,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 71,4 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 88,3 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 114,5 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- may holatiga koʻra, birlikda

Hududlar kesimida

Gʻuzor	32
Dehqonobod	12
Qamashi	46
Qarshi	43
Koson	61
Kitob	65
Mirishkor	22
Muborak	15
Nishon	21
Kasbi	25
Koʻkdala	10
Chiroqchi	32
Shahrisabz	37
Yakkabogʻ	73
Qarshi sh.	247
Shahrisabz sh.	75



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 679 ta yoki 83,2 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

95,6 foiz korxonalar sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri kelib, oʻsish surʼati 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,6 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 2,5 foizni tashkil etib, oʻsish surʼati 90,9 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 2,0 foizini tashkil etib, oʻsish surʼati 100,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish

16



Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

20




Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

780

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

G'uzor	62
Dehqonobod	19
Qamashi	22
Qarshi	75
Koson	92
Kitob	53
Mirishkor	41
Muborak	15
Nishon	17
Kasbi	42
Ko'kdala	11
Chiroqchi	21
Shahrisabz	44
Yakkabog'	59
Qarshi sh.	387
Shahrisabz sh.	66



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,7 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 103,3 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 103,7 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 95,3 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo'nalishida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 taga oshgan;


suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 1 tani tashkil etadi.



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**
2023- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

G'uzor	74	9,8 %	Nishon	150	14,5 %
Dehqonobod	10	4,1 %	Kasbi	184	16,5 %
Qamashi	108	6,9 %	Ko'kdala	59	15,3 %
Qarshi	101	9,5 %	Chiroqchi	78	8,0 %
Koson	183	9,7 %	Shahrisabz	25	5,1 %
Kitob	38	4,5 %	Yakkabog'	189	12,1 %
Mirishkor	103	9,7 %	Qarshi sh.	127	5,6 %
Muborak	55	8,0 %	Shahrisabz sh.	36	5,5 %


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 32 989 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 18 381 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdoda – 31,2 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 25,4 foiz, sanoat – 12,1 foiz, qurilish – 11,5 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


G'uzor	756	Nishon	1 034
Dehqonobod	246	Kasbi	1 115
Qamashi	1 575	Ko'kdala	386
Qarshi	1 063	Chiroqchi	972
Koson	1 880	Shahrisabz	492
Kitob	842	Yakkabog'	1 558
Mirishkor	1 065	Qarshi sh.	4 046
Muborak	691	Shahrisabz sh.	660

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-aprel oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 92 taga, sanoatda 6 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

G'uzor	13	4,0 %	Nishon	25	4,9 %
Dehqonobod	123	11,9 %	Kasbi	34	8,0 %
Qamashi	12	2,5 %	Ko'kdala	5	2,9 %
Qarshi	19	3,4 %	Chiroqchi	7	1,8 %
Koson	10	2,4 %	Shahrisabz	69	13,5 %
Kitob	111	9,7 %	Yakkabog'	21	3,4 %
Mirishkor	13	6,4 %	Qarshi sh.	85	5,7 %
Muborak	14	5,9 %	Shahrisabz sh.	65	7,6 %


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,6 foizni tashkil etdi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga tashish va saqlash (103,8 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (100,5 foiz), savdo sohalari (94,7 foiz), hududlar kesimida esa – Mirishkor (108,6 foiz), Shahrisabz tumani (108,3 foiz), Kitob (104,1 foiz) va Dehqonobod (104,1 foiz) hududlarga to'g'ri keladi.


Hududlar kesimida

G'uzor	325	Nishon	506
Dehqonobod	1 032	Kasbi	427
Qamashi	480	Ko'kdala	173
Qarshi	563	Chiroqchi	385
Koson	374	Shahrisabz	511
Kitob	1 146	Yakkabog'	617
Mirishkor	203	Qarshi sh.	1 479
Muborak	236	Shahrisabz sh.	857


2023- yil 1- yanvar-aprel holatiga ko'ra,

Yillar kesimida soni birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

G'uzor	92	12,5 %	Nishon	22	18,3 %
Dehqonobod	5	4,8 %	Kasbi	2	4,4 %
Qamashi	26	12,2 %	Ko'kdala	38	13,2 %
Qarshi	52	10,8 %	Chiroqchi	14	4,7 %
Koson	48	12,7 %	Shahrisabz	19	4,7 %
Kitob	6	1,9 %	Yakkabog'	7	5,7 %
Mirishkor	1	0,8 %	Qarshi sh.	30	4,7 %
Muborak	4	3,6 %	Shahrisabz sh.	9	3,6 %


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo





Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- may holatiga ko'ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 48 taga ko'paygan.


Bu esa quyidagi sohalaridagi korxonalar: savdoda – 1 358 tadan 1 486 taga (o'sish 128 taga), sanoatda – 1 055 tadan 1 167 taga (o'sish 112 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


G'uzor	734	Nishon	120
Dehqonobod	104	Kasbi	45
Qamashi	213	Ko'kdala	287
Qarshi	481	Chiroqchi	300
Koson	377	Shahrisabz	402
Kitob	324	Yakkabog'	122
Mirishkor	129	Qarshi sh.	643
Muborak	110	Shahrisabz sh.	251

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot

2023- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 1,4 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 27 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 14,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Xitoy Xalq Respublikasi (ulushi 14,9 foiz), Afg‘oniston (ulushi 13,3 foiz), Turkiya Respublikasi (ulushi 11,0 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

G‘uzor	9	Nishon	11
Dehqonobod	15	Kasbi	6
Qamashi	9	Ko‘kdala	4
Qarshi	13	Chiroqchi	5
Koson	13	Shahrisabz	4
Kitob	13	Yakkabog‘	8
Mirishkor	9	Qarshi sh.	45
Muborak	13	Shahrisabz sh.	4

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 118 tasi qo'shma korxonalar, 63 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

qo'shma korxonalar		xorijiy korxonalar
7	G'uzor	2
10	Dehqonobod	5
6	Qamashi	3
7	Qarshi	6
7	Koson	6
7	Kitob	6
6	Mirishkor	3
6	Muborak	7
7	Nishon	4
1	Kasbi	5
3	Ko'kdala	1
5	Chiroqchi	0
2	Shahrisabz	2
5	Yakkabog'	3
37	Qarshi sh.	8
2	Shahrisabz sh.	2

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



**Statistik registrlarni
yuritish boʻlimi**
Tel.:(75) 221-17-93